

TILNING IKKI MA'NOLILIGI MASALASI: AMFIBOLIYA VA AMBIVALENTLIK

Xolmirzayeva Nafisa Normumin qizi

Qarshi davlat universiteti 1-kurs talabasi.

Nilufar Yo'ldosheva

Ilmiy rahbar. Qarshi davlat universiteti f,f,d professor.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15467145>

Annotatsiya. Mazkur maqola tilning matnda ikki ma'noliligi hodisasini lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilishga bag'ishlangan. Ushbu holat nutq jarayonida, matnda noaniqlik va ko'pma'nolilikni yuzaga keltiruvchi turli omillar bilan bog'liq bo'lib, u tilshunoslik, til tizimi, mantiq, falsafa va adabiyot kabi sohalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ushbu hodisaning nazariy asoslari, uning yozma va og'zaki nutq jarayonlariga ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Tilning ikki ma'noliligi, amfiboliya, ambivalentlik, semantik noaniqlik, sintaktik ko'pma'nolilik, mantiqiy tahlil, kontekst, nutq strukturasi.

Аннотация. В данной статье рассматривается явление многозначности языка в тексте. Посвящен внапизу с лингвистической точки зрения. Такая ситуация связана с различными факторами, создающими двусмысленность и двусмысленность в тексте в ходе речевого процесса, и она важна в таких областях, как языкование, языковая система, логика, философия и литература. В статье рассматриваются теоретические основы этого явления его влияние на процессы письменной и устной речи.

Ключевые слова: Неоднозначность языка, амфиболия, амбивалентность, семантическая многозначность, синтаксическая многозначность, логические анализ, контекст, структура речи.

Abstract. This article deals with the phenomenon of ambiguity of language in the text devoted to analysis from a linguistic point of view. This situation is related to various factors that create ambiguity and ambiguity in the speech process, in the text and it is important in such fields as linguistics, language system, logic, philosophy and literature. The article examines the theoretical foundations of this phenomenon, its impact on the processes of written and oral speech.

Key words: Ambiguity of language, amphibole, ambivalence, semantic ambiguity, syntactic ambiguity, logical analysis, context, discourse structure.

Til inson muloqotining asosiy vositasi bo'lib, uning tuzilishi va ishlash mexanizmlari hamisha lingvistik tadqiqotlarning markazida bo'lib kelgan. Til tizimi va nutq jarayonlari ko'pincha ko'pma'nolilik hodisasi bilan ajralib turadi. Ushbu holat tildan foydalanishda, matn bo'ladigan bo'lsa, undagi gaplarda noaniqlikni, turli talqinlar va muloqot jarayonida tushunmovchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Tilshunoslikda ushbu ko'pma'nolilikning turli shakllari atroflicha o'rganilgan bo'lib, ular orasida amfiboliya va ambivalentlik tushunchalari muhim o'rin tutadi. Bu tushunchalarni matn muammolari deb hisoblash ham bo'ladi.¹ "Matn muammolarini o'rganish va uning yaxlit ilmiy nazariyasini

¹ M.Yo'ldoshev, S.Muhammedova, M.Saparniyozova "Matn lingvistikasi -" Toshkent: "Ishonchli hamkor" nashriyoti, 2011.-14b.

xorijdagi faollaridan biri nemis tilshunosi R.Harveg 1974-yilda matn lingvistikasining tilshunoslikda to'liq asoslanishi uchun kamida yuz yil kerak bo'lishini ta'kidkagan edi. Ammo bugun bu gapning aytilganiga hali 40 yil ham bo'lgani yo'q. Lekin butun dunyoda muntazam va qizg'in olib borilgan jiddiy ilmiy izlanishlar tadqiqotlarning tabiiy natijasi o'laroq, "matn lingvistikasi", "matn grammatikasi" alohida fan va o'quv predmet sifatida shakllanganligi keng e'tirof etilgan va buni hech kim inkor qilmaydi."Amfiboliya va ambivalentlik hodisalarini grammatik hodisalar desak ham bo'ladi. Yuqorida biz uni atroflicha o'rganilganini bilib oldik.

² "Sintaksisning asosiy birligi gap ekanligi hamisha e'tirof etilgan, matn yoki uning birliklari gapdan yirik, oliy sintaktik-kommunikativ birliklar hisoblanishi lozimligi bugungi matn lingvistikasining asosiy qoidalaridan biriga aylanib ulgurdi". Shunday ekan, faqat yozuvda aks etgan fapnigina gap deb, og'zaki nutqdagi gapni gap bo'la olmaydi deyish to'g'ri bo'lmasligini isbotlashning hojati yo'q, albatta. Agar faqat yozuvda ifodalangan yaxlit nutqningina matn deyiladigan bo'lsa, mantiq gapni ham faqat yozuvdagisiningina tan olishi kerakligini taqozo etadi. Ammo buning mumkin emasligi tabiiy. Shunday qilib, amfiboliya va ambivalentlik tushunchalarining matnda uchraydigan hodisa ekanligi oydinlashdi.

³ "Bu tushunchalar tilimiz uchun yangi tushunchalar hisoblanadi. Bu hodisalar tilning ikki ma'noliligini keltirib chiqaradi". Amfiboliya tilning ritorik vosita yoki nutq shakli bo'lib, uning sintaktik tuzilishiga ko'ra so'z yoki gapni noaniq yoki noto'g'ri talqin qilish. Ushbu lingvistik hodisa jumlaning turli yo'llar bilan tushunish mumkin bo'lganda yuzaga keladi, bu esa chalkashlikka olib keladi. Amfiboliyaga misol tariqasida – "Kechikkanlar uchun joy yo'q" gapini oladigan bo'lsak, ikki xil talqin qilishimiz mumkin: birinchi ma'nosi – "Kechikkanlar uchun maxsus joy ajratilmagan". Ma'no shundan iboratki, kech qolsa, joy berilmaydi. Ikkinchi ma'nosi esa – "Kechikkan odamlar endi hech qanday joyga ega emaslar". Bu holda gap qat'iyroq qilib, kechikkanlar uchun hech qanday joy qolmaganini bildiradi. Bu jumlada amfiboliya paydo bo'lishining sababi-so'zlarning sintaktik noaniqligi hisoblanadi. Ambivalentlik hodisasi haqida to'xtaladigan bo'lsak, biz, avvalo, bu so'zning lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratishimiz lozim.

"Ambivalentlik-lotinchada so'zdan olingan bo'lib, ("ambo"- "ikkala" va "valentia"- "kuch") ya'ni kishida bir vaqtning o'zida ikki qarama qarshi hissiyot yuzaga kelishi degan ma'noni anglatadi. "Ambivalentlikning o'ziga yarasha xususiyatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Ko'pincha leksik va semantik hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

2. Kontekstga bog'liq ma'no o'zgarishi sodir bo'ladi.

Ambivalentlik hodisasiga misol tariqasida – "U juda yaxshi inson" gapini oladigan bo'lsak, ikki tomonlama tushunishimiz mumkin: birinchisi-to'g'ridan to'g'ri ijobiy ma'no-gapiruvchi shaxs mazkur insonni chin dildan yaxshi deb hisoblaydi. Ikkinchisi-kinoyali ma'no. Gapiruvchi aslida bu insonni yaxshi emas, balki ikkiyuzlama yoki yomon deb o'ylaydi, ammo kinoyali "yaxshi" deb atamoqda. Fikrlarimizning isboti sifatida mana shu gap ikki qarama qarshi munosabatlarni ifodalagan. Ikkilamchi ma'nolarning tilshunoslikda, adabiyotda va she'riyatda ahamiyati katta. Bu kabi ma'nolar o'quvchini chuqurroq fikrlashga undaydi."

² M.Yo'ldoshev, S.Muhammedova, M.Saparniyozova "Matn lingvistikasi" Toshkent: "Ishonchli hamkor" nashriyoti, 2011. - 20 b

³ Sobirova Sh. "Mumtoz adabiyotda qo'llangan ambivalent va presuppozitsiya hodisalari (Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari misolida)-maqola.

Bu maqolaning ahamiyati shundaki,tilning ikki ma'noliligi amfiboliya va ambivalentlik muloqotda va kontekstual jarayonda muhim rol o'ynaydi.Bu hodisalar nutq tushunilishining noaniqligiga sabab bo'lib kelmoqda. ⁴“Til-ijtimoiy hodisa.Uni ijtimoiy munosabatlarsiz,boshqa odamlar bilan muloqot qilmasdan egallash mumkin emas. “Yuqoridagi jarayonlar ijtimoiy munosabatlarga putur yetkazishi mumkin. “Tilni ishlatishda uning asosiy grammatik qoidalariga amal qilish talab etiladi. Til odamlarning tajribasini tashkillashtiradi va umumlashtiradi. Shuning uchun butun madaniyat kabi u rasm bo'lib qolgan ma'nolarni shakllantiradi.Ishtirokchilar qabul qiladigan,ular tomonidan ishlatiladigan va ular tomonidan tushuniladigan ma'nolarning mavjudligidagina kommunikatsiya mumkin bo'ladi.Haqiqatdan ham, kundalik hayotda insonlarning munosabati odamlar bir birini tushunayotganligiga ishonch komilligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. “Ushbu maqolada yuqoridagi ikki hodisa-amfiboliya va ambivalentlik hodisalari taqqoslanib,ularning tabiati,kelib chiqish holatlari, yozma va og'zaki nutqdagi roli tahlil qilindi.Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki,amfiboliya va ambivalentlikni o'rganish tilshunoslik nazariyasi uchun dolzarb bo'lib, ularning ilmiy tahlili muloqot jarayonlarining yanada aniq va samarali bo'lishiga yordam beradi.

REFERENCES

1. M.Yo'ldoshev, S.Muhammedova, M.Saparniyozova “Matn lingvistikasi -” Toshkent: "Ishonchli hamkor"nashriyoti,2011.-14b.
 2. Sobirova Sh. “Mumtoz adabiyotda qo'llangan ambivalent va presuppozitsiya hodisalari(Alisher Navoiyning “Mahbub ul -qulub” asari misolida)-maqola.
 3. A.E.Mamajonov “Zamonaviy lingvistika” - Toshkent: “Noshir” nashriyoti,2019.-22b.
 4. Turniyozov N. “Matn lingvistikasi” (ma'ruzalar matni)-Samarqand.2004.15-b.
 5. Sh.Safarov Pragmalingvistika.Toshkent.2008.
 6. Yuldoshev N.E.sodda gapning struktur tuzilishini o'rganishga doir yondashuvlar\\ "FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM" mavzusida xalqaro ilmiy - nazariy anjuman materiallari.-2021.-C.271.
- Internet saytlari:
7. uz.opentran.net.
 8. Imlo.uz. <https://imlo.uz>
 9. Sinonim.uz. <https://sinonim.uz>.
 10. Wikipediya. <https://ru.wikipedia>.

4. A.E.Mamajonov “Zamonaviy lingvistika” - Toshkent: “Noshir” nashriyoti,2019.-22b.